
KO'CHMA SAVDO DO'KONLARI O'Z FAOLIYATINI OLIB BORMOQDALAR

Karantin sharoitida aholiga asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash maqsadida Qo'shtepa tumanidagi mahallalar bo'ylab ko'chma savdo do'konlari tashkil qilinganini ma'lum qilgan edik.

Kuni kecha tuman hokimi I. Novikov va sektor rahbarlarining amaliy yordamlari natijasida Do'rmon, Yangiariq, Solijonobod mahallalarida ko'chma un savdo do'konlari tashkil etilib, aholiga jami 6 tonna un mahsulotlari arzon narhlarda yetkazib berildi.





2020-04-08 14:09:15